



SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TASNIFI

Azimova Lola Safarovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillar tadqiq etilgan. Boshqaruv samaradorligini baholash yo'llari asoslangan. Boshqaruv resurslari va samaradorligi tavsiflangan.

Аннотация. В статье исследованы основные факторы, определяющие эффективность управления на промышленных предприятиях. Обоснованы методы оценки эффективности управления. Описаны ресурсы и эффективность управления.

Abstract. The article explores the main factors that determine the efficiency of management in industrial enterprises. Management effectiveness assessment methods are justified. Resources and management efficiency are described.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tashkilotning iqtisodiy erkinlik va o'z natijalari uchun to'la javobgarligi natijasida boshqaruv rolining o'sishi boshqaruv sohasiga qo'shimcha mehnat, moliya, moddiy resurslarni ko'proq jalb etmoqda. Mulkdor uchun korxona faqatgina boshqaruv uchun resurslarni sarflashi qanchalik muhim bo'lsa, shunchalik boshqaruv korxonaga bozorda strategik afzalliklar beradi, uning raqobatbardoshligini oshiradi, korxonaning ijtimoiy ahamiyatini qo'llab quvvatlaydi.

Raqobatchilik sharoitlarida rahbar unumdorlik va samaradorlik haqida qayg'urishi kerak. Boshqaruv samaradorligi tushunchasi ko'p jihatdan tashkilotning ishlab chiqarish boshqaruvining o'zigagina xos iqtisodiy xususiyatlarga ega. Boshqaruv samaradorligining bosh mezoni sifatida boshqariladigan obyektning samaradorlik darajasi xisoblanadi.



Boshqaruv samaradorligi muammosi quyidagi muhokamalarni o'z ichiga oluvchi boshqaruv iqtisodining tarkibiy qismidir:

1. Boshqaruv imkoniyatlari, ya'ni boshqaruv tizimi qo'l ostida bo'lgan va foydalanadigan barcha resurslar majmuini tashkil etadi. Boshqaruv qudrati moddiy va ma'naviy shakllarga ega;

2. Boshqaruv vazifalariga mos keluvchi sotish bo'yicha ishlar xajmi, texnologiya, tashkil etish, mazmuni jihatdan aniqlanuvchi boshqaruv uchun chiqim va xarajatlarni;

3. Boshqaruv mehnati xususiyatlarini boshqaruv samaradorligi, ya'ni tashkilot faoliyati, manfaatlarini amalga oshirish jarayonida alohida maqsadlarga erishishda kishilarning harajatlari samaradorligi - bu boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning o'zaro aloqasi sifatidagi boshqaruv jarayoni va faoliyat tizimining samaradorligidir, ya'ni boshqaruv tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligining integratsiyalashgan natijasidir[1].

Samaradorlik boshqaruvchi qanday darajada maqsadlarning amalga oshirsa, shunday darajada rejalashtirgan natijalariga erishishini ko'rsatadi.

Boshqaruv samaradorligi ishlab chiqarish samaradorligida namoyon bo'ladi va ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Maqsad va xarajatlarga taqqoslangan faoliyat natijalari bu aynan, boshqaruv toifasi sifatidagi samaradorlik mazmunidir.

Menejer faoliyati samaradorligiga xodimning imkoniyatlari, uning alohida vazifalarini bajara olish qobiliyati: ishlab chiqarish vositalari, alohida xodim va jamoaning ijtimoiy jihatlari, tashkil etish madaniyati kabi qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu barcha omillar birgalikda integratsiyalashgan xolda ta'sir qiladi.

Shunday qilib, boshqaruv samaradorligi boshqaruvni mukammallashtirishning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ularga erishish uchun sarflangan resurs va boshqaruv natijalarini solishtirib, aniqlanadi. Boshqaruv samaradorligini baholash boshqaruv harajatlari bilan olingan foydani tenglashtirish



yo‘li bilan aniqlanadi. Biroq bunday soddalashtirilgan baholash xar doim xam to‘g‘ri bo‘lavermaydi, sababi:

boshqaruv natijasi xar doim ham foydadan iborat bo‘lmaydi;

bunday baholash boshqaruvni, uning yutuqlaridagi rolini yashiruvchi bevosita va bilvosita natijalarga olib keladi;

boshqaruv natijasi faqatgina iqtisodiy emas, balki ijtimoiy ham bo‘lishi mumkin;

boshqaruv harajatlarini har doim ham aniq ajratish mumkin emas[2].

Ijtimoiy ishlab chiqarishning maqsadi ham oz mehnat, moddiy va pul mablag‘lari sarflab ko‘proq samaraga erishishdir. Samaradorlik nisbiy miqdorini hisoblash uchun erishilgan samarani sarflangan harajatga bo‘lish kerak(1-rasm).



1 – rasm. Boshqaruv resurslari va samaradorligi

Boshqaruv samaradorligini aniqlashda bu tariqa yondashish albatta noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki bu yerda asosiy urg‘u boshqaruvchi obyekt (korxona, firma va x.k.) samaradorligiga emas, balki ko‘proq boshqaruv mehnati samaradorligiga beriladi. Menejment samaradorligini oshirishda qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv jarayonida qaror qabul qilish kundalik qayta qabul qilinadigan qarorlardan farq qilib, u aniq bir tartibga solingan jarayon xisoblanadi. Menejer faqat o‘zi uchun emas, balki firma uchun ham, boshqa mehnatkashlar uchun ham xarakat yo‘nalishini tanlaydi.



Demak, firma boshqaruvida qaror qabul qilish bu tashkilot rahbarini oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun o'z vakolati omilkorligi doirasida qarorlarning mavjud muqobil variantlaridan eng optimalini tanlab olishdir. Bir rahbarning qabul qilgan optimal qarori shu tashkilotning 5-6 oylik ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Qabul qilingan qarorlar xodimlarning xayotiga, ish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda u korxonadan tashqari bo'lgan odamlarga ham ta'sirini ko'rsatadi.

Shunday ekan, boshqaruv qarorlari ilmiy asoslangan bo'lishi lozim, ya'ni boshqaruv qarorlari muayyan ishlab chiqish xolatini taxlil qilishdan kelib chiqib, iqtisodiy texnikaviy va boshqa ijtimoiy qonunlarning amal qilinishi xisobga olinib, hozirgi zamon fan texnika yutuqlarining negizida qabul qilinishi kerak. O'z mazmuniga ko'ra u aniq, chuqur bo'lishi lozim.

Yuqoridagilar boshqaruv qarorlariga qo'yilgan asosiy talablar edi, bulardan tashqari qabul qilinayotgan qarorlar bir-biriga bog'liqligi, xuquq va javobgarlik doirasida bo'lishi, aniq va to'g'ri yo'nalishiga ega bo'lishi, vaqt bo'yicha qisqa va aniq bo'lishi tezkor, hamda samarali bo'lishi lozim. Qabul qilingan qaror boshqaruvning barcha aspektlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Rahbar o'zi qabul qilgan qarorga javobgarligini unutmasligi lozim.

Boshqaruv ishlari natijalari va mazmuni ularni belgilovchi omillar samaradorlik toifalarini taxlil qilish, samaradorlikni namoyon bo'lishini mazmuni va shakl jihatdan o'xshash ko'rsatkichlarni guruhi hisoblanadi, degan xulosa qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ricky W.Griffin. Fundamental of management. 8 th Edition. 2019y.
2. Yo'ldoshev N.Q. Menejmentga kirish. Darslik. –T.:TDIU, 2021y.

3. Yusupov U.Sh. Features Introduction of Information and Communication Technologies in the Activities of Large Industrial Subjects. European Journal of Business Startups and Open Society | ISSN: 2795-9228, Vol. 3 No. 3 (March - 2023): EJBSOS, 89-96-pp.